




Qanday belgilariga ko'ra baliqlarning suvda yashashini bilib olish mumkin?

1. Baliqlarning asosiy belgilari

Baliqlar suvda yashashga moslashgan umurtqali jonivorlar hisoblanadi. Boshqa jonivorlar kabi, ularga ham nafas olishlari uchun kislorod kerak. Ular kislorodni jabralari yordamida suvdan ajratib oladilar. Baliqlar sovuqqon jonivorlar bo'lib, ularning tana harorati atrof-muhitning haroratiga qarab o'zgaradi.

Yirtqichlardan himoyalanişlari uchun baliqlarning tanalari tangalar bilan qoplangan. Bundan tashqari, bu tangalar baliqlarning suvda tez va silliq suzishiga yordam beradi. Baliqlarda yon chiziq deb ataladigan ajoyib a'zo bo'lib, bu chiziqlar suvda yashaydigan boshqa jonivorlarning ularga yaqinlashayotganini ko'rishlaridan oldin, ularni sezishga imkon beradi.



1-topshiriq.

Daftaringizga o'zingiz xohlagan biror baliqning rasmini chizing. Uning qanday qismlardan tuzilganligini yozing.



Baliqlarda bir juft burun teshigi bor. Agar baliqlar jabralari orqali nafas olsa, unda bu teshiklar ularga nima uchun kerak?

2. Akvarium baliqlari

Baliqlar hayotini har kuni kuzatishning eng oson yo'li – bu akvarium baliqlarini boqish.

Guppi – bu mitti baliqcha bo'lib, uning uzunligi 6 santimetrni tashkil qiladi. Kichkina bo'lishiga qaramay, guppi baliq'i ajoyib ranglarga ega. Erkak guppi kulrang urg'ochisidan katta rang-barang dumi va yorqin suzgichlari bilan ajralib turadi.



Akvarium som baliqchalari oddiy tinchliksevar baliqchalar hisoblanadi. Ular pana joylarda: sun'iy g'orlarda, suv o'tlari yoki shunchaki akvarium tubidagi toshlar orasiga berkinishni yaxshi ko'radilar. Odatda, bu baliqlar akvarium devorlarida paydo bo'ladigan mayda suv o'tlari bilan oziqlanadilar. Aynan shu xususiyatlari uchun ham ularni tozalovchilar deb ataydilar.




Skalariya. Odatda, skalariyani tashqi ko'rinishiga qarab, farishta-baliq deb ham ataydilar. Bunday shakl ularning o'simliklar va ildizlar orasiga bekinishiga yordam beradi. Qizig'i shundaki, bu baliqlarning o'lchamlari akvariumning o'lchamlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Akvariumning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, baliq ham shunchalik kattalashib, o'sishi mumkin.




Akvariumda yashovchi yana qanday jonivorlarni bilasiz?

3. Ajoyib dengiz baliqlari

Akula – mashhur dengiz yirtqichlaridan biri. Uning bir necha qator o'tkir arrasimon tishlari bo'lib, ular doimiy ravishda o'sishda davom etadi. Akulaning tangalari juda qattiq va mustahkam bo'lib, uning har bir alohida tangasi tanada chuqur joylashgan kichkina tishga o'xshaydi. Qadimda akulaning terisidan qalqon, qirg'ich va jilvir qog'oz sifatida foydalanilgan.



Dengiz oti – bu ajoyib dengiz balig'i. U o'zining egiluvchan dumi bilan o'simliklarning poyasiga yopishib, yashirinib oladi. Tikanlari va o'simtali, shuningdek, ola-bula rangi uni o'rab turgan fon bilan birikib ketishiga va yirtqichlar uchun sezilarsiz bo'lishiga yordam beradi.



Skatlar – bu uzun dumli va nafis shaklga ega bo'lgan go'zal baliqlar. Dumining oxirida bitta yoki bir nechta zaharli tikanlari bor. Skatlarning zahri odam uchun xavfli emas. Skatlar undan o'ljasini falaj qilish yoki yirtqichlardan himoyalash uchun foydalanadilar.



2-topshiriq.

Daryolar, dengizlar, okeanlarda yashaydigan baliqlarning nomlarini eslang va yozing.



Dengiz oti tez suzadimi yoki sekinmi? Nima uchun? Javobingizni tushuntiring.


4. Dengiz umurtqasizlari




3-topshiriq.

Dengiz umurtqasiz jonzorlarining nomlarini eslang.

Aktiniyalar dengiz gullariga o'xshaydi, ammo aslida, ular jonivorlardir. Odatda, aktiniyalar mayda baliqchalar va molluskalar bilan oziqlanadi. Ko'plab aktiniyalar maxsus kuydiruvchi iplar chiqarib, dushmanlaridan himoyalanganadilar. Aktiniyaga qo'l tekkizilsa, terining kuyishiga olib keladi.



Meduzalar deyarli butunlay suvdan iborat bo'lib, jelesimon soyabonga o'xshaydi. Ular o'zlarining qubbalariga suvni tortib olib, keyin uni kuch bilan tashqariga otish orqali harakatlanadilar. Meduzalarning ko'pchiligida kuydiradigan zaharli changallar bor.



Sakkizoyoqlar quruqlik va suvdagi eng aqlli umurtqasiz jonivorlardan biri hisoblanadi. Ularning tanasi kichik va yumshoq bo'lib, changallashga moslashgan 8 ta uzun oyoqlari bor. Ular bu oyoqlarning orqa ikkitasidan oyoq sifatida, qolgan oltitasidan esa qo'l sifatida foydalanadilar. Sakkizoyoqlar shunchalik aqlligi, hatto ular atrofdagi narsalardan ish quroli sifatida foydalana oladilar. Masalan, ular dushmandan himoyalananayotganida changallarida kuydirishga qodir aktiniylarni ushlab turadilar.



O'ylab ko'ring. Bahaybat akula, cho'rtanbaliq va dengiz otini qayerda uchratish mumkin? Akvariumdami, daryodami yoki dengizdami?



Agar uyingizda, do'stlaringizda yoki sinfingizda akvarium bo'lsa, undagi baliqlardan birini kuzating. Uning tashqi ko'rinishini va nima bilan oziqlanishini tasvirlab bering.